

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI XALQ TA’LIMI VAZIRLIGI
RESPUBLIKA TA’LIM MARKAZI**

**UMUMIY O‘RTA TA’LIMNING 7-SINF O‘QUVCHILARI
BOSQICHLI IMTIHONINI O‘TKAZISH BO‘YICHA
METODIK TAVSIYALAR VA MATERIALLAR**

FIZIKA

2017-2018 o‘quv yili

Umumiy oʻrta taʼlimning 7-sinf oʻquvchilari bosqichli imtihonini oʻtkazish boʻyicha metodik tavsiyalar va materiallar Respublika taʼlim markazi ilmiy-metodik kengashining 2018 yil 11 apreldagi navbatdan tashqari 2-sonli yigʻilishida muhokama qilinib, amaliyotda foydalanish uchun tavsiya etilgan.

Umumiy oʻrta taʼlimning 7-sinf oʻquvchilari bosqichli imtihonini oʻtkazish boʻyicha metodik tavsiyalar va materiallarini kommersion maqsadida koʻpaytirib tarqatish mumkin emas.

Maktab metodbirlashmalari bosqichli imtihon materiallariga 15% oʻzgartirishlar kiritishi mumkin.

Tuzuvchilar:

Zamira Sangirova- Respublika taʼlim markazi metodisti.

U.Alimuhamedova- birinchi toifali fizika fani oʻqituvchisi

Taqrizchi:

M.Saidoripova -birinchi toifali fizika fani oʻqituvchisi

KIRISH

Umumiy oʻrta taʼlim maktablarining 7-sinflarida fizika fanidan bosqichli imtihon ogʻzaki shaklda, tavsiya etilgan imtihon materiallari asosida oʻtkaziladi.

Bosqichli imtihon materiali 30 ta bilet dan iborat boʻlib, har bir bilet da 2 tadan savol berilgan. 1 ta nazariy, 1 ta masala yoki laboratoriya ishi beriladi.

Bosqichli imtihon savollari fizika fanidan 6-7-sinflar boʻyicha oʻquv dasturlari asosida tuzilgan.

Imtihonda har bir oʻquvchi bittada bilet tanlaydi va ogʻzaki javob beradi. Imtihonga tayyorlanish uchun 20 minut ajratiladi.

Fizika fani chuqurlashtirib oʻqitiladigan maktab maʼmuriyati fan metod birlashmasi qarori bilan mazkur maktabning 7-sinf oʻquv dasturiga mos bittadan qoʻshimcha topshiriq kiritishlari mumkin va qoʻshimcha 10 minut vaqt beriladi.

Oʻquvchilar quyidagi mezonlar asosida baholanadi

Nazariy savollarni baholash mezonlari	Ball
Oʻquvchi hodisa va qonuniyatlarning fizik maʼnosini toʻla ochib bersa, ularni hisoblash formulalarini, birliklarini toʻgʻri keltirib chiqargan boʻlsa;	5 ball
Oʻquvchi hodisa va qonuniyatlarni fizik maʼnosini toʻla ochib, asosiy tushunchalar va fizik kattaliklarni keltirib chiqarishda juʼziy xatoliklarga yoʻl qoʻysa;	4 ball
Oʻquvchi hodisa va qonuniyatlarni fizik maʼnosini ochib berib, formulalarni, birliklarini keltirib chiqarishda xatoliklarga yoʻl qoʻysa;	3 ball
Oʻquvchi hodisa va qonuniyatlarning fizik maʼnosini qisman ochib berib, keltirilgan formulalarda, birliklarda xatoliklar boʻlsa;	2 ball
Oʻquvchi hodisa va qonuniyatlarni ochib bera olmasa, baʼzi formulalarni yozib koʻrsata olsa.	1 ball

Masala yechish boʻyicha baholash mezonlari	Ball
Oʻquvchi hodisa va qonuniyatlarning fizik maʼnosini toʻla ochib bersa, asosiy tushunchalar, qonunlarni qoʻllab masalani toʻgʻri yechsa, masala uchun chizma shart boʻlib, chizmalar toʻgʻri chizilgan boʻlsa, fizik kattaliklar va ularning birliklarini toʻgʻri keltirib chiqargan boʻlsa;	5 ball
Oʻquvchi hodisa va qonuniyatlarning fizik maʼnosini toʻla ochib bersa, asosiy tushunchalar, qonunlarni qoʻllab masalani toʻgʻri yechsa, fizik kattaliklarning birliklarini toʻgʻri keltirib chiqargan boʻlsa, masala uchun chizma shart boʻlib, chizmani chizishda juʼziy	4 ball

kamchilikka yo‘l qo‘ysa;	
O‘quvchi hodisa va qonuniyatlarning fizik ma’nosini ochib bersa, asosiy tushunchalar, qonunlarni qo‘llab masalani yechishda xatolikka yo‘l qo‘ysa, masala uchun chizma shart bo‘lib, chizma noto‘g‘ri chizilgan, fizik kattaliklarni belgilashda xatoliklarga yo‘l qo‘ysa;	3 ball
O‘quvchi masalani yechish uchun fizik kattaliklarni, formulani yozgan, masalani yechishga harakat qilgan, lekin fizik kattaliklar birligi umuman keltirib chiqarilmagan bo‘lsa;	2 ball
O‘quvchi masala shartida berilgan fizik kattaliklarni yozgan, masalani umuman yechmagan bo‘lsa.	1 ball

Laboratoriya ishini baholash mezonlari	Ball
Tajriba va o‘lchash ishlari tegishli ketma-ketlikda xavfsizlik texnikasiga rioya qilib bajarilsa, kerakli jihozlardan mustaqil foydalana olsa, tajriba natijalarining absolyut, nisbiy xatoliklarini to‘g‘ri hisoblay olsa va jadval asosida xulosani to‘g‘ri chiqargan bo‘lsa;	5 ball
Tajriba va o‘lchash ishlari tegishli ketma-ketlikda xavfsizlik qoidalariga rioya qilib bajarilsa, kerakli jihozlardan mustaqil foydalana olsa, tajriba natijalarining absolyut, nisbiy xatoliklarini to‘g‘ri hisoblay olsa va jadval asosida xulosani to‘g‘ri chiqarishda ju‘ziy kamchilikka yo‘l qo‘ygan bo‘lsa;	4 ball
Tajriba va o‘lchash ishlari tegishli ketma-ketlikda xavfsizlik qoidalariga rioya qilib bajarilsa, kerakli jihozlardan mustaqil foydalana olsa, tajriba natijalarining absolut, nisbiy xatoliklarini hisoblashda va jadval asosida xulosani to‘g‘ri chiqarishda kamchiliklarga yo‘l qo‘ygan bo‘lsa;	3 ball
Tajriba va o‘lchash ishlari tegishli ketma-ketlikda xavfsizlik qoidalariga rioya qilib bajarilmasa, kerakli jihozlarni mustaqil foydalana olmasa, tajriba natijasini olishda xatolikka yo‘l qo‘ysa va xulosalarni yozishda xatolikka yo‘l qo‘ygan bo‘lsa;	2 ball
Tajriba va o‘lchash ishlarida tegishli ketma-ketlikka rioya qilinmasa, tajriba bajarishga harakat qilinsa, lekin natijasi xato bo‘lsa.	1 ball

1-BILET

1. Deformasiya va ularning turlarini ayting. Elastiklik kuchi nima va u qanday vujudga kelishini misollar orqali tushuntiring. Guk qonuni qanday formula bilan ifodalanadi va ta'riflanadi?
2. 3 kg massali jism tinchlik holatidan $2,0 \text{ m/s}^2$ tezlanish bilan gorizontal ko'chirilgan 96 J ish bajarilgan bo'lsa, ko'chish qancha vaqt davom etgan?

2-BILET

1. Ishqalanish kuchi va tinchlikdagi ishqalanish deb nimaga aytiladi? Ularning paydo bo'lish sabablarini misollar yordamida tushuntiring va formulasini yozing.
2. Massasi 780 g bo'lgan temirning suvdagi vazni 6,8 N ga, noma'lum suyuqlikdagi vazni esa 7 N ga teng. Bu suyuqlikning zichligini aniqlang. Temirning zichligi 7800 kg/m^3 ga teng.

3-BILET

1. Nyutonning uchinchi qonuni qanday ta'riflanadi va ifodalanadi? Nyutonning uchinchi qonuni aks ta'sir qonuni ekanligini isbotlang.
2. Umumiy massasi 700 g bo'lgan raketada 400 g portlovchi modda bor. Agar gazlar 300 m/s tezlik bilan bir onda chiqib ketsa, raketa qanday balandlikka ko'tariladi? Havoning qarshiligini hisobga olmang. $g = 10 \text{ m/s}^2$.

4-BILET

1. Tekis o'zgaruvchan harakat, tezanish va uning birliklari, bosib o'tilgan yo'l grafikda qanday ifodalanadi?
2. Kosmik kema Yer sirtidan qanday balandlikka ko'ratilganda, erkin tushish tezlanishi $2,45 \text{ m/s}^2$ gacha kamayadi? Yerning radiusi $R = 6400 \text{ km}$

5-BILET

1. Markazga intilma va qochma kuchlar nima va qanday formulada ifodalanadi. Ulardan turmushda foydalanishga misollar keltiring.
2. Laboratoriya ishi: Qattiq jismning zichligini aniqlash.

6-BILET

1. Yerning tortishish kuchi ta'sirida gorizontal otilgan jismlarning harakatini tahlil qiling. Birinchi kosmik tezlik nima va uning son qiymatini ayting.
2. Tormozlangan poyezd tekis sekinlanuvchan harakat qilib 1 minutda o'z tezligini 40 km/soat dan 28 km/soat gacha kamaytirgan. Poyezdning tezlanishi va tormozlanish vaqtida o'tgan yo'li topilsin?

7-BILET

1. Butun olam tortishish qonunini ta'riflab bering. U qanday formulada ifodalanadi. Atrofimizdagi jismlarning bir-birini tortishishini nima sababdan sezmaymiz?

2. Richagning kichik yelkasi 5 sm, kattasi –30 sm. Kichik yelkaga 12 N kuch ta'sir qiladi. Kattasiga qanday kuch bilan ta'sirlashsa muvozanat hosil bo'ladi?

8-BILET

1. Yerning sun'iy yo'ldoshi deb nimaga aytiladi? Kosmosning zabt etilishi haqida gapirib bering.
2. Massasi 1,2 kg bo'lgan yukni o'quvchi uzunligi 0,8 m va balandligi 0,2 m li qiya tekislikka 5,4 N kuch ta'sirida olib chiqdi. Qiya tekislikning f.i.k.ni toping.

9-BILET

1. Harakatni tushuntirishda tekis harakat, to'g'ri chiziqli tekis harakatni taqqoslang. Tezlik deb nimaga aytiladi? U qanday formulada ifodalanadi, xalqaro birliklar sistemasida birligi. Notekis harakatda oniy va o'rtacha tezliklarni tushuntiring.
2. Laboratoriya ishi: Dinamometr yordamida kuchlarni o'lchash.

10-BILET

1. Potensial energiya deb nimaga aytiladi? Jismning vertikal harakatida qanday holda musbat, qanday holda manfiy ish bajarishini misollar yordamida tushuntiring.
2. Massalari 1 va 2 kg bo'lgan 2 ta shar bir-biriga tomon 1 va 2 m/s tezlik bilan harakatlanib, noelastik to'qnashdi. Tizim kinetik energiyasi necha joul kamaygan?

11-BILET

1. Og'irlik kuchi va jismning og'irligi deb nimaga aytiladi? Ular qanday formulalarda ifodalanadi?
2. 5 kg massali miltiqdan 5 g massali o'q 600 m/s tezlik bilan otilib chiqadi. Miltiqning orqaga tepish tezligi topilsin.

12-BILET

1. Tekis o'zgaruvchan harakat deb qanday harakatga aytiladi? Uni misollar yordamida tushuntirib bering. Tezlanish deb nimaga aytiladi? Uning formulasi va birligini ayting. Qiya tekislikda harakat qilayotgan aravacha harakatini tahlil qiling.
2. 12 kg massali jismga 6 N kuch bilan 8 s davomida ta'sir etilyapti. Jism tezlanishi va 8- sekund oxiridagi tezlikni toping.

13-BILET

1. Aylanma tekis harakat deb nimaga aytiladi? Aylanma tekis harakatda chiziqli va burchakli tezlik qanday ifodalanadi va ularning birliklarini ayting.
2. Tramvay 49 m/s^2 tezlanish bilan harakatlanadi. Agar motor quvvatining 50% ishqalanish kuchini yengishga va 50% harakatning tezligini oshirishga sarf bo'lgani ma'lum bo'lsa, ishqalanish koeffitsiyenti topilsin.

14-BILET

1. Nyutonning birinchi qonunini tushuntiring. Jismning inersiyasi nima?
2. Erkin tushayotgan jism qandaydir momentda 1100 m balandlikda bo'lgan. Shundan 10 s o'tgach 120 m balandlikda bo'ldi. Jism qanday balandlikdan tushgan.

15-BILET

1. Reaktiv harakat deb nimaga aytiladi? Impulsning saqlanish qonuni asosida raketa qanday harakatlanishini tushuntiring va kosmik raketalarning yaratilishiga hissa qo'shgan olimlar haqida ayting.
2. Laboratoriya ishi: Tekis tezlanuvchan harakatlanayotgan jism tezlanishini aniqlash.

16-BILET

1. Sirpanish, dumalanish ishqalanish deb nimaga aytiladi? Ishqalanishning foydali va zararli tomonlarini misollar yordamida tushuntiring va formulasini yozing.
2. Jism boshlang'ich tezliksiz tekis tezlanuvchan harakat qilib, 5 sekundda 25 m masofani o'tdi. U harakat boshlangandan necha sekundda 400 m masofani o'tdi?

17-BILET

1. Mexanik harakat deb nimaga aytiladi? Siz avtobusda ketmoqdasiz, harakatning nisbiyligi haqida tushunturing. Bu misol orqali sanoq jism va sanoq sistemasini ko'rsating. Fazoning chegarasizligi, uch o'lchamligi, vaqtning uzluksizligi, bir o'lchamligini tushuntiring.
2. 25 sm li ipga aylanish chastotasi $4\frac{1}{s}$ bo'lgan sharcha mahkamlangan. Sharchaning chiziqli va burchakli tezliklari topilsin.

18-BILET

1. Yuklama va vaznsizlik holatlarini tushuntirib bering va misollar keltiring. Yerdaham vaznsizlikni kuzatish mumkinmi?
2. Teploxodning vater chizig'idan hisoblangan qirqim yuzasi 4000 m². Unga yuk ortilganda u suvga 1,5 m cho'kdi. Ortilgan yuk massasini toping. Dengiz suvining zichligi 1030 kg/m³.

19-BILET

1. Jismlarning o'zaro ta'siri deganda nimani tushunasiz? Kuch deb nimaga aytiladi va qanday birliklarda hamda asboblarda o'lchanadi.
2. Sol 12 ta quruq archa yog'ochidan yasalgan. Har bir yog'ochning bo'yi 4 m, eni 30 sm va qalinligi 25 sm. Shu solda daryodan og'irligi 10 kN bo'lgan avtomashinani olib o'tish mumkinmi?

20-BILET

1. Skalyar va vektor kattaliklarni ayting va ularning ustida amallarni (qo'shish, ayirish, bo'lish, ko'paytirish) tushuntiring.

2. Traktor pritsepti 10 kN kuch bilan tortayapti, va unga $0,5 \text{ m/s}^2$ tezlanish berayapti. Kuchi 30 kN bo'lgan traktor unga qanday tezlanish beradi?

21-BILET

1. Energiyaning aylanishi va saqlanishini misollar yordamida tushuntiring.
2. Velosipedchi va mototsiklchi bir nuqtadan o'zaro tik yo'nalishlarda harakat boshlaganlaridan 10 sekund o'tgach, ular o'rtasidagi masofa 150 metr bo'ldi. Mototsiklchining tezligi qanday bo'lgan? Mototsiklchining tezligi velosipedchining tezligidan 3 marta katta.

22-BILET

1. Nyutonning ikkinchi qonunini ta'riflab bering. U qanday formulada ifodalanadi.
2. A va B punktlardan bir-biriga qarab ikki velosipedchi yo'lga chiqdi. Ular B punktdan 30 km masofada uchrashishdi. Manzilga borib qaytishda esa A punktdan 18 km masofada uchrashishdi. Punktlar orasidagi masofani toping.

23-BILET

1. Mexanik ish deb nimaga aytiladi va u qanday formulada ifodalanadi? Kundalik turmushda mexanik ish bajarilishiga misollar keltiring.
2. Laboratoriya ishi. Sirpanish ishqalanish koeffitsiyentini aniqlash.

24-BILET

1. Jismning inertligi deb nimaga aytiladi? Jismning massasi nima va u qanday belgilanadi. Massani qanday asboblarda o'lchash mumkin.
2. Gidravlik press kichik porshenining yuzi 8 sm^2 , katta porsheniniki 800 cm^2 . Kichik porshenga 600 N kuch berilganda, katta porshendan 54 kN kuch olindi. Ishqalash bo'lmaganda va ishqalanish bo'lganda, shu press yordamida kuchni necha marta oshirish mumkin bo'ladi?

25-BILET

1. Quvvat va uning birliklari haqida ayting. Quvvat, kuch va tezlik orasidagi munosabatni tushuntiring.
2. Toshkent shahri dengiz sathidan 408 m balandlikda. Televizion minoraning balandligi 192 m. Minoraning tepasida barometr necha mm Hg bosimni ko'rsatadi? 100 m ga ko'tarilganda bosim 9 mm Hg ga kamayadi deb hisoblang. Dengiz sathidagi bosim 760 mmHg.

26-BILET

1. Jismlarning erkin tushishi deb nimaga aytiladi? Erkin tushish tezlanishi son qiymatini ayting. Erkin tushishga oid qanday formulalarni bilasiz?
2. Simob solingan U-simon nayning bir tirsagiga 13,6 sm balandlikda suv quyilsa, ikkinchi tirsagidagi simob sathi qanchaga ko'tariladi (sm)? Simobning zichligi $13,6 \cdot 10^3 \text{ kg/m}^3$.

27-BILET

1. Aylanma tekis harakatda tezlik va tezlanishning yoʻnalishini tushuntiring. Markazga intilma tezlanish formulasi qanday ifodalanadi?
2. Vertikal ipga osilgan 10 kg massali jism yerga tegib turibdi. Agar ipning taranglik kuchi 30 N boʻlsa, jism yerni necha nyuton kuch bilan bosmoqda? $g = 10$ N/kg.

28-BILET

1. Kinematikaning asosiy tushunchalari (moddiy nuqta, trayektoriya, yoʻl va koʻchish, ilgarilanma harakat) ni misollar yordamida tushuntiring.
2. Ochiq idish toʻla suvi bilan 500 kg massaga ega. Unga 300 kg metal boʻlagi tushirilganda, massasi 700 kg boʻlib qolgan boʻlsa, metallning zichligi qanday?

29-BILET

1. Mexanik va kinetik energiya deb nimaga aytiladi? Kinetik energiyani misollar yordamida tushuntiring.
2. Laboratoriya ishi: Jism tezlanishining massasiga va qoʻyilgan kuchga bogʻliqligini oʻrganish.

30-BILET

1. Kuch impulsini tajribalar yordamida, jism impulsini misollar orqali tushuntirib, ularni ifodalovchi formulalarni ayting. Impulsning saqlanish qonunini va uning qoʻllanilishiga misollar keltiring.
2. Parijdagi, poʻlatdan yasalgan, balandligi 300 m boʻlgan Eyfel minorasining massasi 7200 t. Bu minoraning zichligi poʻlatnikidan 2 marta kichik boʻlgan moddadan yasalgan, balandligi 30 sm boʻlgan modelining massasi qanday boʻladi?

INFORMATIKA VA AXBOROT TEXNOLOGIYALARI

7-sinf

Umumiy o'rta ta'lim maktablarining 7-sinflarida informatika fanidan o'quvchilarning bilim, ko'nikma, malaka va kompetentsiyalarini aniqlash maqsadida bosqichli nazorat imtihoni yozma shaklda o'tkaziladi. Yozma ishlarni bajarish uchun har bir o'quvchiga bittadan bilet beriladi. Har bir biletida ikkitadan topshiriq keltirilgan.

Nazorat ishlari zamonaviy kompyuter bilan ta'minlanmagan va ta'minlangan maktablar uchun mo'ljallangan.

Topshiriqlar Davlat ta'lim standarti hamda o'quv dasturiga mos holda tuzilgan.

O'quvchilar yozma ishni daftarda bajaradilar. Yozma ish topshiriqlarini bajarish uchun 1 astronomik soat vaqt ajratiladi.

Informatika fani chuqurlashtirib o'qitiladigan maktab (sinf) ma'muriyati fan metod birlashma qarori bilan 7-sinf o'quv dasturiga mos ravishda har bir biletga bittadan qo'shimcha amaliy topshiriq kiritishi lozim. Shu sababli o'quvchilarga yechimlarni izohlash uchun qo'shimcha ravishda yarim astronomik soat (30 daqiqa) vaqt beriladi.

Nazorat ishidagi yozma ish topshiriqlari quyidagi mezonlar asosida baholanadi:

Topshiriqni yoritilishiga qo'yiladigan talablar	Ballar
Topshiriq to'liq bajarilgan, ya'ni quyidagi bandlar to'liq bajarilgan bo'lsa: 1) topshiriq bajarilishi to'g'ri mantiqiy ketma-ketlikda bayon etilgan; 2) har bir qadam xato va kamchiliklardan holi; 3) topshiriq izoh bilan bayon etilgan; 4) topshiriqqa mos ilovalar (rasmlar, jadvallar va hokazo) keltirilgan; 5) xulosa (javob) chiqarilgan.	5
Topshiriq bajarilgan, lekin quyidagi bandlardan bittasida kamchilik bo'lsa: 1) topshiriq bajarilishi to'g'ri mantiqiy ketma-ketlikda bayon etilgan; 2) har bir qadam xato va kamchiliklardan holi; 3) topshiriq izoh bilan bayon etilgan; 4) topshiriqqa mos ilovalar (rasmlar, jadvallar va hokazo) keltirilgan; 5) xulosa (javob) chiqarilgan.	4
Topshiriq bajarilgan, lekin quyidagi bandlardan uchtasida kamchilik bo'lsa: 1) topshiriq bajarilishi to'g'ri mantiqiy ketma-ketlikda bayon etilgan; 2) har bir qadam xato va kamchiliklardan holi; 3) topshiriq izoh bilan bayon etilgan; 4) topshiriqqa mos ilovalar (rasmlar, jadvallar va hokazo) keltirilgan; 5) xulosa (javob) chiqarilgan.	3
Topshiriq o'quvchi tomonidan tushunilgan, lekin uni hal etishda kerak bo'ladigan ma'lumotlardan to'g'ri foydalana olmagan. Topshiriqni yechishda	2

kamchiliklar ko'pligidan to'g'ri yechimga erisha olmagan, lekin topshiriqni yechishda keltirilgan ayrim to'g'ri mulohazalar yuritgan.	
Topshiriq o'quvchi tomonidan bajarilmagan.	1

7- sinfda informatika fanidan quyidagi bilet savollaridan foydalanish tavsiya etildi.

1-BILET

- Sanoq sistemalariga oid topshiriqni bajaring.
 - $11011_2 + (1 \cdot 2^8 + 1 \cdot 2^6 + 1 \cdot 2^4 + 1 \cdot 2^2 + 1 \cdot 2^0) \rightarrow X_{10}$
 - Sonlarni o'sish tartibida joylashtiring: 748, 1100102, 7010
- Informatika fani va axborot haqida ma'lumot bering, misollar keltiring.

2-BILET

- Sanoq sistemalariga oid topshiriqni bajaring.
 - $1101011,1_2 - (1 \cdot 2^5 + 1 \cdot 2^3 + 1 \cdot 2^{-2} + 1 \cdot 2^{-1})$
 - O'tkazishni bajaring: $D0E9A_{16} \rightarrow X_2$
- Axborotni ko'rinishlari va xususiyatlari haqida ma'lumot bering, misollar keltiring.

3-BILET

- Sanoq sistemalariga oid topshiriqni bajaring.
 - $10101_2 \cdot (1 \cdot 2^8 + 1 \cdot 2^6 + 1 \cdot 2^4 + 1 \cdot 2^1 + 1 \cdot 2^0)$
 - O'tkazishni bajaring: $BA010_{16} \rightarrow X_2$
- Axborotli jarayonlar va axborot ustida bajariladigan amallar haqida ma'lumot bering, misollar keltiring.

4-BILET

- Sanoq sistemalariga oid topshiriqni bajaring.
 - $101010_2 + (1 \cdot 2^6 + 1 \cdot 2^4 + 1 \cdot 2^3 + 1 \cdot 2^2 + 1 \cdot 2^0)$
 - O'tkazishni bajaring: $F0DA_{16} \rightarrow X_2$
- Axborotni qayta ishlash va uzatish haqida ma'lumot bering, misollar keltiring.

5-BILET

- Sanoq sistemalariga oid topshiriqni bajaring.
 - $1111011,01_2 - (1 \cdot 2^5 + 1 \cdot 2^3 + 1 \cdot 2^2 + 1 \cdot 2^1)$
 - O'tkazishni bajaring: $BA6BA_{16} \rightarrow X_2$
- Axborotlarni kodlash va kodlashdan maqsad haqida ma'lumot bering, misollar keltiring.

6-BILET

- Sanoq sistemalariga oid topshiriqni bajaring.
 - $1101_2 \cdot (1 \cdot 2^4 + 1 \cdot 2^2 + 1 \cdot 2^0) \rightarrow X_{10}$

- b. O'tkazishni bajaring: $F09B_{16} \rightarrow X_8$
2. MS Word matn muharririda abzas parametrlari haqida ma'lumot bering, misollar keltiring.

7-BILET

1. Sanoq sistemalariga oid topshiriqni bajaring.
- a. $111111_2 + (1 \cdot 2^8 + 1 \cdot 2^7 + 1 \cdot 2^5 + 1 \cdot 2^1 + 1 \cdot 2^0)$
- b. O'tkazishni bajaring: $9EE0_{16} \rightarrow X_2$
2. Sanoq sistemalari tarixi haqida ma'lumot bering, misollar keltiring.

8-BILET

1. Sanoq sistemalariga oid topshiriqni bajaring.
- a. $1011010_2 - (1 \cdot 2^3 + 1 \cdot 2^2 + 1 \cdot 2^1 + 1 \cdot 2^0) \rightarrow X_{10}$
- b. O'tkazishni bajaring: $334477_8 \rightarrow X_{16}$
2. Sanoq sistemalari turlari haqida ma'lumot bering, misollar keltiring.

9-BILET

1. Sanoq sistemalariga oid topshiriqni bajaring.
- a. $1001_2 \cdot (1 \cdot 2^4 + 1 \cdot 2^3 + 1 \cdot 2^2 + 1 \cdot 2^0) \rightarrow X_{10}$
- b. Sonlarni kamayish tartibida joylashtiring: $102_{10}, 147_8, 65_{16}$
2. MS Word matn muharriri dasturida matnni formatlash haqida ma'lumot bering va misollar keltiring.

10-BILET

1. Sanoq sistemalariga oid topshiriqni bajaring.
- a. $101110101_2 + 1 \cdot 2^4 + 1 \cdot 2^3 + 1 \cdot 2^2 + 1 \cdot 2^0 \rightarrow X_{10}$
- b. Sonlarni o'sish tartibida joylashtiring: $12_8 \cdot 1010_2, 20_8 \cdot A_{16}, 200_{10}$
2. Web-brauzerlar haqida ma'lumot bering.

11-BILET

1. Sanoq sistemalariga oid topshiriqni bajaring.
- a. $101,0101_2 + 1 \cdot 2^5 + 1 \cdot 2^3 + 1 \cdot 2^2 + 1 \cdot 2^{-1} + 1 \cdot 2^{-3}$
- b. O'tkazishni bajaring: $203891_{10} \rightarrow X_8$
2. Triada va tetrada jadvallari haqida ma'lumot bering, misollar keltiring.

12-BILET

1. Sanoq sistemalariga oid topshiriqni bajaring.
- a. $1011_2 \cdot (1 \cdot 2^5 + 1 \cdot 2^4 + 1 \cdot 2^1 + 1 \cdot 2^0) \rightarrow X_{10}$
- b. Sonlarni o'sish tartibida joylashtiring: $1010_8, 100010_2, 101_{16}$
2. Axborot hajmi va o'lchov birliklari haqida ma'lumot bering, misollar keltiring.

13-BILET

1. Sanoq sistemalariga oid topshiriqni bajaring.
- a. $1000010_2 + 1 \cdot 2^6 + 1 \cdot 2^5 + 1 \cdot 2^4 + 1 \cdot 2^3 + 1 \cdot 2^0 \rightarrow X_{10}$

- b. Sonlarni kamayish tartibida joylashtiring: $10011_2, 21_8, 10_{16}$
2. Axborotni ikkita belgi yordamida kodlash haqida ma'lumot bering.

14-BILET

1. Sanoq sistemalariga oid topshiriqni bajaring.
- a. $10011001_2 - (1 \cdot 2^6 + 1 \cdot 2^2 + 1 \cdot 2^1) \rightarrow X_{10}$
- b. O'tkazishni bajaring: $620057_8 \rightarrow X_2$
2. MS Paint dasturi menyulari yordamida rasm ustida bajarish mumkin bo'lgan amallar haqida ma'lumot bering.

15-BILET

1. Sanoq sistemalariga oid topshiriqni bajaring.
- a. $1000011,01_2 - (1 \cdot 2^4 + 1 \cdot 2^1 + 1 \cdot 2^{-2})$
- b. O'tkazishni bajaring: $211519_{10} \rightarrow X_8$
2. Ikkilik sanoq sistemasidagi sonlarni o'nlik sanoq sistemasida va aksincha tasvirlash haqida ma'lumot bering.

16-BILET

1. Sanoq sistemalariga oid topshiriqni bajaring.
- a. $1001_2 \cdot (1 \cdot 2^3 + 1 \cdot 2^2 + 1 \cdot 2^1 + 1 \cdot 2^0) \rightarrow X_{10}$
- b. Sonlarni o'sish tartibida joylashtiring: $111011_2, 114_8, 3A_{16}$
2. Axborot miqdori va uzatish tezligi haqida ma'lumot bering.

17-BILET

1. Sanoq sistemalariga oid topshiriqni bajaring.
- a. $10111101_2 + 1 \cdot 2^5 + 1 \cdot 2^3 + 1 \cdot 2^2 + 1 \cdot 2^1 + 1 \cdot 2^0 \rightarrow X_{10}$
- b. O'tkazishni bajaring: $2746735255_8 \rightarrow X_2$
2. Internetda ma'lumotlarni izlash to'g'risida ma'lumot bering va shu bo'yicha amalda bajarib ko'rsating.

18-BILET

1. Sanoq sistemalariga oid topshiriqni bajaring.
- a. $1000011_2 - (1 \cdot 2^5 + 1 \cdot 2^3 + 1 \cdot 2^1) \rightarrow X_{10}$
- b. Sonlarni kamayish tartibida joylashtiring: $72_8, 68_{10}, 38_{16}$
2. Ikkilik sanoq sistemasidagi sonlarni o'nlik sanoq sistemasida va aksincha tasvirlash haqida ma'lumot bering.

19-BILET

1. Sanoq sistemalariga oid topshiriqni bajaring.
- a. $1101111_2 + 1 \cdot 2^6 + 1 \cdot 2^3 + 1 \cdot 2^1 + 1 \cdot 2^0 \rightarrow X_{10}$
- b. Sonlarni o'sish tartibida joylashtiring: $12_8 \cdot 9_{10}, 7_8 \cdot A_{16}, 100000_2$
2. Axborot texnologiyalari haqida ma'lumot bering.

20-BILET

1. Sanoq sistemalariga oid topshiriqni bajaring.
 - a. $11111001_2 - (1 \cdot 2^6 + 1 \cdot 2^2 + 1 \cdot 2^{-2})$
 - b. O'tkazishni bajaring: $111100011000_2 \rightarrow X_{10}$
2. www tarkibi va Internet tarmog'i haqida ma'lumot bering.

21-BILET

1. Sanoq sistemalariga oid topshiriqni bajaring.
 - a. $1001001_2 - (1 \cdot 2^5 + 1 \cdot 2^2 + 1 \cdot 2^0) \rightarrow X_{10}$
 - b. O'tkazishni bajaring: $100101011101100101_2 \rightarrow X_8$
2. Axborotlarni himoyalash va antiviruslar haqida ma'lumot bering.

22-BILET

1. Sanoq sistemalariga oid topshiriqni bajaring.
 - a. $100011001_2 - (1 \cdot 2^6 + 1 \cdot 2^3 + 1 \cdot 2^0) \rightarrow X_{10}$
 - b. O'tkazishni bajaring: $1001001111000111100_2 \rightarrow X_{16}$
2. MS Word matn muharriri dasturida matnni tahrirlash haqida ma'lumot bering.

23-BILET

1. Sanoq sistemalariga oid topshiriqni bajaring.
 - a. $111100111_2 - (1 \cdot 2^6 + 1 \cdot 2^3 + 1 \cdot 2^1) \rightarrow X_{10}$
 - b. O'tkazishni bajaring: $DAA_{16} \rightarrow X_8$
2. MS Word matn muharririda АБЗАЦ parametrlari haqida ma'lumot bering, misollar keltiring.

24-BILET

1. Sanoq sistemalariga oid topshiriqni bajaring.
 - a. $10111001_2 + (1 \cdot 2^7 + 1 \cdot 2^3 + 1 \cdot 2^1 + 1 \cdot 2^{-2})$
 - b. O'tkazishni bajaring: $10000000101_2 \rightarrow X_{10}$
2. Qidiruv tizimlari va ularda ishlash haqida ma'lumot bering, misollar keltiring.

25-BILET

1. Sanoq sistemalariga oid topshiriqni bajaring.
 - a. $10111010_2 + 1 \cdot 2^7 + 1 \cdot 2^5 + 1 \cdot 2^3 + 1 \cdot 2^1 \rightarrow X_{10}$
 - b. O'tkazishni bajaring: $ABAD_{16} \rightarrow X_8$
2. MS Word matn muharririda ШРИФТ parametrlari haqida ma'lumot bering, misollar keltiring.

26-BILET

1. Sanoq sistemalariga oid topshiriqni bajaring.
 - a. $1101_2 \cdot (1 \cdot 2^5 + 1 \cdot 2^1 + 1 \cdot 2^0) \rightarrow X_{10}$
 - b. Sonlarni o'sish tartibida joylashtiring: $1010000_2, 117_8, 4F_{16}$
2. Axborotli olam muammolari va Internet haqida ma'lumot bering.

27-BILET

1. Sanoq sistemalariga oid topshiriqni bajaring.
 - a. $100010011_2 + (1 \cdot 2^3 + 1 \cdot 2^2 + 1 \cdot 2^1 + 1 \cdot 2^{-2})$
 - b. O'tkazishni bajaring: $100001100101_2 \rightarrow X_{10}$
2. Internetda ma'lumotlarni ishlash haqida ma'lumot bering.

28-BILET

1. Sanoq sistemalariga oid topshiriqni bajaring.
 - a. $1011_2 \cdot (1 \cdot 2^4 + 1 \cdot 2^2 + 1 \cdot 2^0) \rightarrow X_{10}$
 - b. O'tkazishni bajaring: $EEE0_{16} \rightarrow X_8$
2. Elektron pochta haqida ma'lumot bering.

29-BILET

1. Sanoq sistemalariga oid topshiriqni bajaring.
 - a. $1111_2 \cdot (1 \cdot 2^4 + 1 \cdot 2^2 + 1 \cdot 2^1) \rightarrow X_{10}$
 - b. Sonlarni kamayish tartibida joylashtiring: 62_{16} , 1100100_2 , 143_8
2. MS Word matn muharririda matnni formatlash haqida ma'lumot bering, misollar keltiring.

30-BILET

1. Sanoq sistemalariga oid topshiriqni bajaring.
 - a. $101101000_2 + (1 \cdot 2^7 + 1 \cdot 2^2 + 1 \cdot 2^1 + 1 \cdot 2^0)$
 - b. O'tkazishni bajaring: $100010001101_2 \rightarrow X_8$
2. MS Word matn muharririda sahifa parametrlari haqida ma'lumot bering, misollar keltiring.

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI XALQ TA‘LIMI VAZIRLIGI
RESPUBLIKA TA‘LIM MARKAZI**

**UMUMIY O‘RTA TA‘LIMNING 7-SINF O‘QUVCHILARI
BOSQICHLI IMTIHONINI O‘TKAZISH BO‘YICHA
METODIK TAVSIYALAR VA MATERIALLAR**

INFORMATIKA VA AXBOROT TEXNOLOGIYALARI

2017-2018 O‘QUV YILI

Umumiy oʻrta ta'limning 7-sinf oʻquvchilari bosqichli imtihonini oʻtkazish boʻyicha metodik tavsiyalar va materiallar Respublika ta'lim markazi ilmiy-metodik kengashining 2018 yil 11 apreldagi navbatdan tashqari 2-sonli yigʻilishida muhokama qilinib, amaliyotda foydalanish uchun tavsiya etilgan.

Umumiy oʻrta ta'limning 7-sinf oʻquvchilari bosqichli imtihonini oʻtkazish boʻyicha metodik tavsiyalar va materiallarini komertsiya maqsadida kopaytirib tarqatish mumkin emas.

Maktab metodbirlashmalari bosqichli imtihon materiallariga 15% oʻzgartirishlar kiritishi mumkin.

Tuzuvchilar:

Sh.I.Ishmurodov - Respublika ta'lim markazi boʻlim boshligʻi.

G.Xakimova – Toshkent shahar Yunusobod tumani 260-sonli maktabning Informatika va axborot texnologiyalari fani oʻqituvchisi.

Taqrizchilar:

M.Abdullayeva - Toshkent shahar Sergeli tumanidagi 300–sonli maktabning Informatika va axborot texnologiyalari fani oʻqituvchisi.

B.Muminova - Toshkent shahar Yunusobod tumanidagi 250–sonli maktabning Informatika va axborot texnologiyalari fani oʻqituvchisi.

KIRISH

Umumiy oʻrta taʼlim maktablarining 7-sinflarida Informatika va axborot texnologiyalari fanidan bosqichli imtihon yozma ish shaklida, tavsiya etilgan imtihon materiallari asosida oʻtkaziladi.

Yozma ishlarni bajarish uchun har bir oʻquvchiga bittadan bilet beriladi. Har bir biletga ikkitadan topshiriq keltirilgan.

Nazorat ishlari zamonaviy kompyuter bilan taʼminlanmagan va taʼminlangan maktablar uchun moʻljallangan.

Topshiriqlar Davlat taʼlim standarti hamda oʻquv dasturiga mos holda tuzilgan.

Oʻquvchilar yozma ishni daftarda bajaradilar. Yozma ish topshiriqlarini bajarish uchun 60 minut vaqt ajratiladi.

Informatika va axborot texnologiyalari fani chuqurlashtirib oʻqitiladigan maktab maʼmuriyati fan metodbirlashma qarori bilan 7-sinf oʻquv dasturiga mos ravishda har bir biletga bittadan qoʻshimcha amaliy topshiriq kiritishi lozim. Shu sababli oʻquvchilarga yechimlarni izohlash uchun qoʻshimcha ravishda 30 minut vaqt beriladi.

